

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI**

**QO‘ZIYEVA MAXLIYO MUXAMMADIYEVNA**

**OKSIDLANGAN NANOSELLYULOZANING OLINISHI, TUZILISHI VA  
XOSSALARI**

**02.00.05 – Sellyuloza va sellyuloza-qog‘oz ishlab chiqarish kimyosi va texnologiyasi  
02.00.12-Nanokimyo, nanofizika va nanotexnologiya**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

<b>Qo‘ziyeva Maxliyo Muhammmadiyevna</b> Oksidlangan nanosellyulozaning olinishi, tuzilishi va xossalari .....	3
<b>Кузиева Махлиё Мухаммадиевна</b> Получение, структура и свойства окисленной наноцеллюлозы.....	21
<b>Kuzieva Makhliyo Mukhammadievna</b> Preparing, structure and properties of oxidized nanocellulose .....	41
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati</b> Список опубликованных работ List of published.....	44

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI**

**QO‘ZIYEVA MAXLIYO MUXAMMADIYEVNA**

**OKSIDLANGAN NANOSELLYULOZANING OLINISHI, TUZILISHI VA  
XOSSALARI**

**02.00.05 – Sellyuloza va selluloza-qog‘oz ishlab chiqarish kimyosi va texnologiyasi  
02.00.12-Nanokimyo, nanofizika va nanotexnologiya**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/K721 raqam bilan ro'yhatga olingan.**

Dissertatsiya Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (polchemphys.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Ataxanov Abdumutolib Abdupatto o'gli**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Qodirxonov Murodixon Rashidxonovich**  
kimyo fanlari doktori, dotsent

**Yo'ldoshov Sherzod Abdullayevich**  
kimyo fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent kimyo-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_» soat \_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7b uy. Tel.:(+99871) 241-85-94, faks: (+99871) 241-26-60, e-mail: [polymer@academy.uz](mailto:polymer@academy.uz))

Dissertatsiya bilan Polimerlar kimyosi va fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. ( 44 raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7<sup>b</sup> uy. Tel. (+99871)241-85-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024 yil «\_\_» \_ dagi \_\_ raqamli reyestr bayonnomasi.)

**S.Sh. Rashidova**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor, akademik

**M.M. Usmanova**

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.n., katta ilmiy xodim

**A.A. Sarimsakov**

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda biomoyillik, bioparchalanuvchanlik, xavfsiz va notoksik xossalarga ega bo'lgan tabiiy polimerlar asosidagi biomateriallarga ilmiy va amaliy jihatdan qiziqish tobora ortib bormoqda. Ushbu yo'nalishda qayta tiklanuvchi hom ashyo bazasiga ega bo'lgan, tabiatda eng keng tarqalgan sellyuloza asosida noyob xossalarga ega bo'lgan yangi nanomateriallar sintez qilish, ularning tuzilishi va xossalarini tadqiq qilish hamda turli sohalarda, jumladan, biotibbiyot yo'nalishida qo'llash imkoniyatlarni aniqlash va kengaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda jahonda xitin, xitozan, pektin, sellyuloza va boshqa tabiiy polisaxaridlarni modifikasiyalash orqali turli yo'nalishlarda, jumladan tibbiyot maqsadlarida noyob xossalarga ega bo'lgan tibbiy preparatlar yaratish bo'yicha ilmiy izlanishlar faol olib borilmoqda. Bu borada, sellyuloza strukturasi karboksil, karboksimetil, amin kabi faol funksional guruhlar kiritish orqali stimulsezgir, dori tashuvchi, bioparchalanuvchi birikmalarni yaratish kabi yo'nalishlarda maqsadli ilmiy izlanishlarni amalga oshirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda ham faol funksional guruhlar tutgan nanoolchamli va nanotuzilishi tabiiy polimerlar hosilalari asosida qishloq xo'jaligi, sanoat, farmasevtika sohalarda qo'llaniladigan yangi polimer mahsulotlar yaratishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, mahalliy tabiiy polimerlar va ularning hosilalari asosida tibbiyot, qishloq xo'jaligi, veterinariya sohasida import o'rnini bosuvchi va eksportga mo'ljallangan mahsulotlar yaratishni rivojlantirishda ilmiy izlanishlarni yuqori darajada tashkil qilish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, raqobatbardosh polimer mahsulotlarni ishlab chiqarish borasida muhim natijalarga erishilmoqda. Mamlakatimizni yanada rivojlantirish bo'yicha Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup>, 2030 – yilgacha bo'lgan ilm-fanni rivojlantirish konsepsiyasida<sup>2</sup> «...mahalliy xom ashyo resurslarini qayta ishlash, yangi farmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish...» vazifalari belgilab berilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasida kasaliklarni og'riqsiz, tez davolash amaliyoti uchun katta ehtiyojga ega bo'lgan mahalliy xom ashyo manbalari asosida yangi dori tashuvchi preparatlar yaratish va ularni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 fevraldagi PQ-3532-sonli "Farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2018 yil 25 oktyabrdagi PQ-3983-son "O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 23 yanvardagi PQ-3489-sonli "Dori vositalari va tibbiyot mahsulotlarini ishlab chiqarish va importini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmoni.

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» Farmoni.

hamda 2019 yil 3-aprildagi PQ-4265-sonli “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida” gi Qarori 2019 yil 30 dekabrda PQ-4554-sonli “O`zbekiston Respublikasi farmatsevtika tarmog`ida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida” gi, Qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me`yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishi ustuvor yo`nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo`nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoni o`rganilganlik darajasi.** Dunyoning qator yetakchi ilmiy markazlarida turli usullarda nanosellyuloza hosilalarini sintez qilish, fizik-kimyoviy xossalarni o`rganish va turli sohalarda qo`llash bo`yicha ilmiy izlanishlar jadallik bilan olib borilmoqda. Chop etilgan nashrlarning ko`pchiligida asosan nanosellulozaning turli hil funksional guruh tutgan hosilalarini sintez qilishga bag`ishlangan. Sellyulozaning karboksil guruh tutgan hosilasining olinishi va qo`llash bo`yicha olib borilgan ilmiy yo`nalishlarni rivojlantirishga A. Isogai, T. Saito, S. Zang, D. Wang, M. Milichovskiy, S. Rowan, A. Besemer va bir qator ilmiy maktablar hissa qo`shishgan. Dunyoning ko`plab mamlakatlarida tabiiy polimerlar asosida mukoadgeziv va dori tashuvchi materiallar yaratish hamda qo`llash bo`yicha ilmiy izlanishlar ham olib borilmoqda. Tabiiy polimerlar (sellyuloza, xitozan, pektin va boshq.) asosida dori tashuvchi materiallar yaratish bo`yicha olib borilgan ilmiy yo`nalishlarni rivojlantirishga A. Schnurch, H. Peled, M. Bruschi, I. Bayer, R. Brannigan, J. Smart, A. Bernkop-Schnürch, V. Khutoryanskiy va bir qator ilmiy maktablar hissa qo`shib kelmoqda.

Respublikamizda mazkur yo`nalish rivojiga akademiklar S.Sh. Rashidova, A.S. Turayev, professorlar G.R. Raxmanberdiyev, A.A. Sarimsakov, A.A. Ataxanov, fan doktorlari H.E Yunusov, Sh A Yo`ldoshev va boshqalar o`z ilmiy izlanishlari bilan sellyuloza asosida tibbiy biologik preparatlar yaratish bo`yicha o`z hissalarini qo`shgan.

Ushbu izlanishlarga qadar adabiyotlarda oson va kam bosqichli usullar qo`llangan holda oksidlangan nanosellyuloza sintez qilish hamda ularni dori tashish tizimlarida mukoadgeziv materiallar sifatida qo`llash borasida ilmiy tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmagan. Bu o`z navbatida ushbu yo`nalishda chuqur va amaliy ishlarni amalga oshirish, oksidlangan nanosellyulozani murakkab bo`lmagan usullar yordamida sintez qilish hamda uning strukturasi qo`shimcha funksional guruhlar kiritish orqali biotibbiyotda qo`llash imkoniyatini beruvchi notoksik, bioparchanuvchi yangi mukoadgeziv materiallar yaratish istiqbollari yuzaga keltiradi.

**Dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishi rejalari bilan bog`liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi bazaviy ilmiy tadqiqot ishlari rejasi (2020-2024 y.) hamda FA-F7-T-008 “Nanopolimer tizimlar, maxsus xossalarga ega bo`lgan materiallarni yaratishda kinetik jihatlar va elektron

strukturaning o'rni" (2015-2019 y.) va A-FA-2021-388 "Mikrokristallik sellyuloza ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish" (2021-2023 y.) mavzularidagi fundamental va amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** turli xil yondashuvlar asosida oksidlangan nanosellyuloza va uning hosilalarini (dialdegid oksinanosellyuloza) sintez qilish, ularning tuzilish va xossalarini aniqlash.

**Tadqiqotning vazifalari:**

sellyulozaning nanoo'lchamli zarrachalarini bixromat oksidlash usuli orqali oksidlangan nanotsellyuloza sintez qilish, uning tuzilishi va xossalarini tadqiq qilish;

mikrokristallik sellyulozani permanganat oksidlash usuli yordamida oksidlangan nanosellyuloza sintez qilish, uning tuzilishlari va xossalarini o'rganish.

oksidlangan nanosellyuloza namunalarini periodat oksidlash orqali tarkibida ham aldegid ham karboksil guruhlari tutgan dialdegid oksinanosellyuloza olish, ularning tuzilishi va xossalari tadqiq qilish;

sintez qilingan nanosellyuloza hosilalarining (oksidlangan nanosellyuloza, dialdegid oksinanosellyuloza) maxsus xossalarini, jumladan, mukoadgeziv va toksikologik xossalarini tadqiq qilish.

**Tadqiqotning obyektlari** – mikrokristallik sellyuloza (MKS), nanosellyuloza (NS), oksidlangan nanosellyuloza (ONS), dialdegid oksinanosellyuloza (DAONS) hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti** mikrokristallik sellyuloza va nanosellyuloza asosida oksidlangan nanosellyuloza hosilalarini sintez qilish, dialdegid oksidlangan nanosellyuloza sintez qilish, kimyoviy reaksiya qonuniyatlarini o'rganish, namunalarning tuzilishi, fizik-kimyoviy va tibbiy-biologik xossalarini tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlarda IQ-Fure va UB-spektroskopiya usullari, rentgen strukturaviy analiz, atom kuchlanishli mikroskopiya (AKM), termogravmetriya, konduktometriya, vizkozometriya, fizik-mexanik va kimyoviy analiz usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bora mikrokristallik sellyuloza asosida permanganat oksidlash usulini qo'llash orqali yuqori oksidlanish darajasiga ega bo'lgan oksidlangan nanosellyuloza sintez qilindi va uning tuzilishi va xossalari aniqlandi;

ilk bora nanosellyulozani bixromat oksidlovchi ta'sirida oksidlash orqali oksidlangan nanosellyuloza sintez qilindi va oksidlanish jarayoni aynan C6 da joylashgan gidroksil guruhida borishi hamda sellyulozaning glyukopiranoza halqasi saqlanib qolishi ko'rsatildi;

ilk bora strukturasida ham karboksil ham aldegid guruhlari tutgan oksidlangan nanosellyulozaning yangi hosilasi dialdegid oksinanosellyuloza sintez qilindi va tuzilishi hamda xossalari tadqiq qilindi;

ilk bora oksidlangan nanosellyuloza va dialdegid oksinanosellyuloza namunalari gel hosil qilish va yuqori mukoadgeziv xossalarga ega ekanligi aniqlandi hamda kamtoksik mukoadgeziv materiallar sifatida qo'llash

imkoniyatlari ko'rsatildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

MKS va NS asosida ONS namunalari sintez qilishning maqbul sharoitlari aniqlangan va olingan namunalarning fizik-kimyoviy xossalari aniqlangan;

ONS namunalari asosida DAONS namunalari sintez qilingan hamda fizik-kimyoviy xossalari o'rganilgan;

ONS va DAONS namunalari asosida turg'un gel olish imkoniyatlari ko'rsatilgan;

sintez qilingan NS ning yangi namunalari kamtoksikligi va mukoadgeziv materiallarga xos bo'lgan xususiyatlarga ega ekanligi ko'rsatilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi.** Sellyuloza asosida nanoo'lchamli oksidlangan hosilalarini olinishi va ularning fizik-kimyoviy, hamda mukoadgeziv xossalarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tajribalar natijalari zamonaviy fizik-kimyoviy va xalqaro standart usullar yordamida aniqlangan. Olingan ilmiy va amaliy natijalar respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda muxokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, nanosellyulozaning oksidlangan hosilalarini turli yondashuvlar (permanganat va bixromat,) yordamida sintez qilingan, ularning tuzilishi va xossalari, shuningdek eritmaları va gellarining reologik xossalari o'rganilgan. Oksidlanish sharoitlarining kimyoviy tarkibga ta'siri, uning morfologiyasi va xossalariga ta'siri aniqlangan. Nanosellyuloza hosilalarining *in vitro* sharoitida og'iz bo'shlig'i shilliq pardalariga adgeziv xususiyatlari va shilliq pardalar sirtlari bilan o'zaro ta'sir qilish mexanizmlari tadqiq qilindi. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida biotibbiyot maqsadlarida kerakli mexanik, biokimyoviy va biofizik xususiyatlarga ega bo'lgan yangi biomoyil gibrid materiallarni yaratish maqsadida mikrokristallik, nanosellyuloza oksidlanishinig istiqbolli strategiyalari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, nanosellyulozaning yangi hosilalarini sintez qilishning oson va kam bosqichli usullari ishlab chiqildi. Sintez qilingan obyektlar tibbiy amaliyot uchun zarur bo'lgan xususiyatlar to'plamiga ega matritsalarini shakllantirishda, shuningdek, dori vositalarining inson organlarining shilliq pardalari orqali yuborish uchun mukoadgeziv xususiyatga ega bo'lgan dori tashuvchi vositalarning yangi polimer shakllarini yaratish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** oksidlangan nanosellyulozaning sintezi, tuzilish tahlili, reaksiya mexanizmi va xossalari bo'yicha olingan ma'lumotlardan 4 ta xorijiy ilmiy jurnallarda yangi materiallar yaratish va fizik-kimyoviy tahlili uchun foydalanilgan (Polymers, 2023, V.15, Scopus, IF=5; Bioresource technology, 2024, V.399, Elsevier, IF=11.4; Green Chemistry, 2024, V.26, Royal Society of Chemistry, IF=9.8; Applied Materials & Interfaces, 2024, V.16, ACS, IF=8.5). Natijada sellyulozani selektiv oksidlash jarayonini amalga oshirish imkonini bergan;

oksidlangan nanosellyuloza hosilalari (ONS, DAONS) Reading universiteti (Buyuk Britaniya) tomonidan 2023-2024 yillarda bajarilgan "Polyaphrons as a platform formulation technology transmucosal drug delivery" mavzusidagi ilmiy

loyihada qo'llanilgan (Reading Universitetining 2024 yil 23 oktyabrdagi ma'lumotnomasi). Natijada oksidlangan nanosellyuloza va uning hosilalari kamtoksik mukoadgezivlikka ega materiallar ekanligi aniqlandi va ular asosida yangi avlod mukoadgeziv material yaratish istiqbollari ko'rsatildi.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Dissertatsiya bo'yicha olingan asosiy natijalar 12 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, bulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy nashrlarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 1 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 95 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyektlari va predmetlari belgilangan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo'yicha xulosa qilingan hamda nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Oksidlangan sellyuloza olishning yangi yondashuvlari va istiqbolli qo'llanish sohalari**" nomli birinchi bobida oksisellyulozaning olinishi, tuzilishi, xossalari va qo'llanilish sohalari haqida hamda hozirgi kunda amaliy tibbiyotda qo'llanilayotgan zamonaviy dori tashuvchi tibbiy vositalar, ularning olinish usullari, turlari, kimyoviy tarkibi, tuzilishi va xossalari haqida bag'ishlangan adabiyotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot obyektlari va usullari**" nomli ikkinchi bobida oksidlangan nanosellyuloza va dialdegid oksidlangan nanosellyuloza olish uchun kerakli xom ashyo va materiallar, nanosellyuloza va mikrokristallik sellyuloza asosida uning oksidlangan hosilalarini sintez qilish usullari, yaratilgan materiallarning mukaddezi ko'rsatkichlarini model tizimlarda aniqlash va ularning fizik-kimyoviy tadqiq etish usullari tavsiflangan.

Dissertatsiyaning "**Oksidlangan nanosellyuloza va dialdegidoksisellyulozaning olinishi, tuzilishi va xossalari**" nomli uchinchi bobida turli oksidlovchilar ishtirokida oksidlangan nanosellyuloza, dialdegidoksinanosellyuloza sintezi, namunalarning fizik-kimyoviy xossalari tadqiq etilgan. Olingan oksidlangan nanosellyuloza namunalari asosida olingan gelning reologik xossalari tadqiq qilingan. Karboksil va aldegid guruh tutgan dialdegid oksidlangan nanosellyuloza olish va ularning tarkibi, tuzilishi va fizik-


kimyoviy xossalari yangi mukoadgeziv xossaga ega bo'lgan preparatlar olishning imkoniyatlari mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Nanosellyuloza hosilalarini olish uchun xomashyo sifatida mikrokristallik selluloza va nanosellyuloza namunalari tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi.

Nanosellyulozaning  $K_2Cr_2O_7$  ishtirokida kislotali muhitda oksidlash jarayoni kaliy bixromatning sellulozani oksidlash uchun zarur bo'lgan minimal konsentrasiyasida (0,012 mol/l), xona haroratida ( $25^{\circ}C$ ) turli vaqt davomida (1-11 soat) olib borildi. Kaliy bixromatning minimal konsentrasiyasini tanlashga sabab reaksiya jarayoni tugagandan keyin, yakuniy mahsulot ONS tarkibidan xrom ionlaridan tozalashni osonlashtirish. Haroratning oshishi sellulozani destruksiya tezlashtirishga olib keladigan eng asosiy faktorlaridan biri ekanligini hisobga olib, reaksiya xona haroratida olib borildi. Turli xil vaqt davomida olib borilgan tajribalarda 3 soat davomida eng kam va 9 soatda eng maksimal oksidlanish darajasiga erishishga muvaffaq bo'lindi.

Konduktometrik titrlash natijalarini hisoblash shuni ko'rsatdiki, reaksiya davomiyligi oshishi bilan karboksil guruhlari miqdori 1,21 mmol/g dan (ONS-3 uchun) 1,36 mmol/g gacha (ONS-9 uchun) ortadi.


Karboksil guruhlarning shakllanishi infraqizil spektroskopiya tadqiqotlari bilan ham tasdiqlangan (1-rasm).



NS va ONS ning qiyosiy tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki,  $3400\text{ sm}^{-1}$  atrofida -OH ning tebranishlari bilan bog'liq. Metilen va metin guruhlarning -CH bog'larining tebranishlari  $2800\text{-}2950\text{ sm}^{-1}$  atrofida namoyon bo'ldi. NS spektridan farqli o'laroq, ONS namunalarning IQ spektrlarida  $1721\text{ sm}^{-1}$  to'lqin uzunligida karboksil guruhining C=O valent tebranishi bilan bog'liq yangi yutilish paydo bo'ldi. Bu angidroglyukoza birligining asosiy gidroksil guruhlari ( $C_6$  da) muvaffaqiyatli karboksil guruhlarga aylantirilganligini ko'rsatdi ONS-9 ning IQ spektrlari cho'qqilarining intensivligi ONS-3 ga qaraganda kuchliroqdir, bu ko'proq miqdorda karboksil guruhlari mavjudligini va yuqori oksidlanish darajasini ko'rsatadi. Shu bilan birga,  $1425\text{ sm}^{-1}$  sohada -CH<sub>2</sub>- guruhlarning tebranishlari bilan bog'liq holda, signal intensivligi pasaygan,  $1315\text{ sm}^{-1}$  da yutilish zonasining intensivligi -CH<sub>2</sub>- ning tekislikdan tashqari tebranishlar bilan bog'liqdir.

UB-spektroskopik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, taxminan 196, 240 va 290 nm sohada aldegid guruhlarining C=O guruhi (240, 290 nm) va karboksil guruhlari (190-210 nm) bilan bog'liq bo'lgan uchta absorbsiya cho'qqilari mavjud.

ONS namunalarining rentgenostrukturaviy tahlili 110 110, 200 va 004 tekisliklariga mos keladigan  $2\theta = 14^\circ, 16^\circ, 22^\circ$  va  $34^\circ$  sohasida to'rtta kristall refleksiya mavjudligini ko'rsatdi (2-rasm). Oksidlanish vaqti ortishi bilan ONS namunalarining kristallanish darajasi 88% dan 79% gacha kamaydi, bu esa NS kristall strukturasi qisman buzilganligidan dalolat beradi.




**2-rasm.** NS, ONS-3 va ONS-9 namunalarining rentgen difraktogrammasi

Rentgen nurlari diffraksiyasi tahlili ma'lumotlari bo'yicha hisoblangan kristallitlarning o'lchamlariga ko'ra bitta NS kristallitida sellulozaning 726 elementar birligi joylashgan va ulardan 220 tasi kristallit yuzasida joylashgan. Bu shuni anglatadiki, C6 uglerodda taxminan 220 gidroksil guruhi mavjud bo'lib, ular modifikatsiya uchun ko'proq moyil va agar bu gidroksil guruhlarning barchasi oksidlansa, oksidlanish darajasi 100% bo'ladi. Bu kristallitdagi elementar yacheykalardagi gidroksil guruhlari umumiy sonining taxminan 30% ni tashkil qiladi. Nazariy hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, C6 uglerodidagi mavjud gidroksil guruhlarning 20-25% karboksil guruhlarga oksidlangan.

Namunalarning termik barqarorligi TGA usuli bilan o'rganildi. Barcha termogrammlar polimerlarning endotermik degradatsiyasini ko'rsatdi. TGA tahlili shuni ko'rsatdiki, ONS namunalarining parchalanish harorati dastlabki NS ga qaraganda pastroq va karboksil guruhi miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, parchalanish harorati past bo'ldi. ONS namunalarida karboksil guruhlarning miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, massa yo'qotish shunchalik ko'p bo'ldi. Massa yo'qotishning boshlanish harorati ONS namunasi uchun  $200^\circ\text{C}$  ni, NS namunasi uchun  $250^\circ\text{C}$  ni tashkil qildi.

Atom kuchlanishli mikroskop (AKM) tadqiqoti NS zarralari kengligi 50-100 nm va uzunligi 180-600 nm bo'lgan ignasimon shaklga ega ekanligini ko'rsatdi. NS va ONS yuqori sirt faollikka ega bo'lgani uchun, ular osongina aglomeratsiyaga uchraydi va mikron o'lchamdagi aglomeratlarni hosil qiladi. Oksidlanish

jarayonining davomiyligi oshishi bilan ONS zarrachalarining o'lchami kichrayishi kuzatildi, bu AKM tadqiqotlari natijalari bilan mos keladi (5-rasm). Oksidlanish jarayoni zarrachalar taqsimotining kichrayishiga olib kelishi ham aniqlandi, buni Lorenz taqsimoti bilan tavsiflandi.



**3-rasm.** NS va ONS namunalarining AKM tasvirlari

Oksidlanish jarayoni eni 30-80 nm va uzunligi 150-400 nm bo'lgan zarrachalar hajmining pasayishiga va sharsimon shaklga o'tish bilan NS ning ignasimon shaklining qisman buzilishiga olib keladi. Oksidlanish jarayonining uzoq davom etishi 120-160 nm o'lchamdagi sferik zarrachalar aglomeratlarining shakllanishiga olib keladi.


NS zarrachalarining o'lchamlari va taqsimoti dinamik nur tarqalishi (DLS) usuli bilan ham baholandi, bunda zarrachalarining o'lchamlari nanomikrometrgacha bo'lganligini va zarracha o'lchamlarining polimodal taqsimoti kuzatildi

**1-jadval.**

Zarrachalar hajmining taqsimlanishi

Namuna	Radius R, nm	Miqdori, %	Dinamik yorug'lik tarqalishi $D_t$ ( $m^2/s$ )
NS	182±9	98.8	$1.342 \times 10^{-12}$
ONS-3	127±7	89.3	$1.924 \times 10^{-12}$
ONS-9	113±5	84.5	$2.162 \times 10^{-12}$


Keyingi tadqiqotlarimizda mikrokristallik sellyulozani kislotali muhitda kaliy permanganat ( $KMnO_4$ ) ishtirokida oksidlash jarayonlari o'rganildi. Ushbu oksidlanish tizimida  $MnO_4^-$  sellyulozaning C6-OH birligi tomonidan  $Mn^{2+}$  ga o'zgargan degan xulosaga kelish mumkin. Ortiqcha  $MnO_4^-$  ioni  $Mn^{2+}$  ni kolloid  $MnO_2$  ga oksidlanishida ishtirok etadi, bu esa o'z-o'zidan katalizator bo'lib, tizimga yuqori oksidlanishni ta'minlaydi. Kislotali muhit  $KMnO_4$  ni  $Mn^{7+}$  holatida ushlab turishga yordam beradi va samarali oksidlanishni ta'minlaydi. Reaksiya tugagandan so'ng,  $MnO_2$  ni rangsiz  $Mn^{2+}$  ga o'tkazish orqali reaksiyani to'xtatish uchun  $H_2O_2$  qo'shildi. ONS tizimi darhol oq rangga aylandi va reaksiya to'xtatildi.  $Mn^{2+}$  ionlari reaksiyon muhitdan sentrifugalash, yuvish va dializ usullari yordamida chiqarishga muvaffaq bo'lindi



**4-rasm.** MKS (1) va ONS (2) namunalarning IQ spektrlari

Karboksil guruhlarining shakllanishi IQ spektroskopik tadqiqotlar bilan tasdiqlandi (5-rasm). Infraqizil spektrlarida ~. MKS namunalari spektridan farqli o'laroq, ONS spektrlarida  $1721 \text{ cm}^{-1}$  to'liq uzunligida yangi yutilish diapazoni paydo bo'ldi, bu C=O ning vibratsion tebranishi bilan bog'liq.

Oksidlanish jarayonida karboksil (-COOH) va karbonil (C=O) guruhlarining shakllanishi UB spektrida yangi yutilish sohalarda cho'qqilar paydo bo'lishiga olib keldi. Oksidlanishdan so'ng, 200–210 nm soha atrofidagi yutilish spektri oksidlanish jarayonida kiritilgan karboksil yoki karbonil guruhlarining yutilishiga mos keladigan past intinsivlikdagi yutilish spektri kuzatish mumkin. Bu oksidlanmagan mikrokristallik sellyulozada mavjud bo'lmagan qo'shbog'larning ya'ni C=O guruhlarining  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tishlari natijasidir. MKS va ONS dagi kuzatilgan 240 nm yutilish spektrlari gidroksil guruhlarining O atomlaridagi bog'larda qatnashmaydigan juftlashgan elektronlarning asosiy holatidan qo'zg'atilgan holatga, ya'ni  $n \rightarrow \sigma^*$  o'tish natijasida hosil bo'ladi. Oksinanaoselyulozada hosil bo'layotgan 290 nm sohadagi yutilish spektrlari O atomidagi  $n \rightarrow \pi^*$  elektron o'tishlarga tegishli.



**5-rasm.** MKS va ONS namunalarning rentgen diftogrammalari

Mikrokristallik selluloza (MKS) kaliy permanganat ( $\text{KMnO}_4$ ) yordamida oksidlanganda kristallik darajasi MKSda 79% dan oksidlangan nanosellyulozada (ONS) 59% gacha pasayishi kuzatildi, bu oksidlanish jarayonida kristall qismlarning buzilishi bilan izohlandi. Oksidlanish dastlab sellulozaning amorf hududlarida boshlanadi, chunki bu yerda zanjirlar nisbatan tartibsiz joylashgan. Oksidlanish jarayoni davom etar ekan, u tartibli kristall hududlarga ham ta'sir qiladi. Bu selluloza strukturasi amorf qismining umumiy miqdorining o'sishiga olib keladi.

AKM tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, ONS o'lchami 106-180 nm gacha kamaygan hamda MKS namunalari kuzatiladigan shaklsiz aglomerat zarralar sferik va ignasimon shakllarga ega bo'lishi kuzatildi. Oksidlanish jarayonining zarra shakli va o'lchamiga ta'siri dinamik nur tarqalish (DLS) usuli bilan ham baholandi, bunda zarrachalarning o'lchamlari mikrometrdan nanometrgacha o'zgarishini ko'rsatdi va zarrachalarning polimodal taqsimoti ham kuzatildi.

Qo'shimchalardan tozalangan oksidlangan nanosellyuloza namunalarining tozalik darajasi atom adsorbsion spektroskopiya usuli yordamida Cr va Mn ionlari miqdori aniqlandi. Tahlil natijalari ONS namunalari tarkibida  $<0.192$  mg/g miqdorda Cr ionlari borligi va bu Cr ionlari uchun ruxsat berilgan konsentratsiyadan ancha kam ekanligi aniqlandi.

Olingan natijalar asosida ikki xil yangi usulda sintez qilingan, hamda adabiyotlar sharhida keltirilgan hozirgi kunda keng qo'llaniladigan TEMPO-oksidlash usulida olingan ONS namunalarining ko'rsatkichlari taqqoslandi (2-jadval).

## 2-jadval

Turli xil usulda olingan ONS namunalarining ko'rsatkichlari


Namunalar	Zarra o'lchami	Polimerlanish darajasi	Karboksil guruh miqdori mmol/g	Reaksiya unumi %
NS	50-500 nm	240	-	-
MKS	50-450 mkm	350	-	-
ONS ( $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ )	113-172 nm	172	1,31	88%
ONS ( $\text{KMnO}_4$ )	180-220 nm	192	1,18	93%
ONS (TEMPO)	184-230 nm	216	1,03	81%

Natijalar shuni ko'rsatdiki, taklif qilinayotgan bixromat va permanganat usulida sintez qilingan ONS namunalari TEMPO-oksidlash usulida olingan ONS namunasiga nisbatan tarkibida karboksil guruhi miqdori yuqoriligi, reaksiya unumi yuqoriligi va zarra o'lchamlari kichikligi bilan farq qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar sintez qilingan ONS namunalari gel hosil qilish xususiyatlari mavjudligi aniqlandi. Gel olish jarayonida natriy gidroksid eritmasidan foydalanildi. Natriy gidroksid ONS zanjirlari orasidagi vodorod bog'larni buzishi mumkin, bu esa ONS orasidagi molekulalararo ta'sirlashuvlarni kuchsizlantiradi va disperslik darajasini oshiradi.

Gellarning reologik sinovlari Anton Paar MCR 301 rotasion reometrida konus-tekislik o'lchov birligida (diametri 25 mm /  $2^\circ$ ) amplituda va chastotaga bog'liqlik rejimlarida  $25^\circ\text{C}$  haroratda o'tkazildi. Dinamik modulning amplitudaga

bog'liqligi elastik modulning doimiy qiymati ( $G'=\text{const}$ ) bilan tavsiflangan qovushqoq-elastiklikning chiziqli diapazonini aniqlashga xizmat qiladi. Ham permanganat, ham dixromat usullari bilan sintez qilingan ONS namunalari uchun qovushqoq-elastiklikning chiziqli diapazoni barcha ko'rib chiqilgan deformatsiya amplitudalari diapazonida kuzatiladi va o'rganilgan oraliqda  $G'>G''$  ekanligi, ya'ni saqlash moduli yo'qotish modulidan yuqori ekanligi aniqlandi.



6-rasm. ONS gellarning chastota bo'yicha reologik o'lchovlari

Chastotaga bog'liq bo'lgan o'rganishlar odatda buzilmaydigan kuchlanish oralig'ida namunaning vaqtga bog'liq harakatini tasvirlash uchun ishlatiladi. Chastota bo'yicha tadqiqotlar polimerlarning xatti-harakatlari va ichki tuzilishi haqida ma'lumot to'plash uchun, ya'ni tinch holatda material oqishga qodirmi yoki u mustahkam barqaror shaklni saqlab turadimi degan savolga javob olish mumkin. Saqlash va yo'qotish modulining chastotaga bog'liqligi bo'yicha olingan natijalarga asosan, o'rganilgan ONS namunalari gel sifatida o'zini namoyon qildi, chunki ular saqlash moduli deformatsiya chastotalarining barcha diapazonida yo'qotish modulidan yuqori bo'ldi va bu tadqiqotlarda ham bixromat usulida olingan namunalar nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi.


Olib borilgan tadqiqotlar asosida ONS va uning hosilalarini to'rt xil shaklda, ya'ni kukun, gel, kriogel (gubka) va plyonka shakllarda olindi (7-rasm).



7-rasm. ONS hosilalarining turli xil ko'rinishlari: (chapdan o'nga) kukunsimon; gel; gubka (kriogel), plyonka

Birlamchi o'tkazilgan tadqiqotlar asosida shakllantirilgan gellarni yuqori manfiy haroratlarda ( $-60^{\circ}\text{C}$ ) liofilizatsiyalash orqali to'rtli strukturaga, elastik va deformatsiyalanuvchi gubka (kriogellar) olish imkoniyati aniqlandi. Gellarni tekis yuzada  $40-50^{\circ}\text{C}$  haroratlarda quritish orqali mexanik mustahkam elastik plyonkalar olindi. Plonka va gubka ko'rinishidagi materiallar biotibbiyotda qo'llashda qiziqish uyg'otishi mumkin.

Tadqiqotlarimiz keying bosqichida ONS namunalari natriy periodat ( $\text{NaIO}_4$ ) ishtirokida selluloza strukturasiidagi ikkilamchi gidroksil guruhlarni oksidlash boyicha ilmiy izlanishlar olib borildi. Bu oksidlanish jarayoni o'ziga xos reaksiya mexanizmi bo'yicha sodir bo'ladi, bunda natriy periodat selluloza zanjirining elementar zvenosidagi C2-C3 bog'lanishini tanlab oksidlaydi:



Ushbu modifikatsiya sellulozaga yangi funksional xossalarni paydo qiladi, ayniqsa uning o'zaro bog'lanishlarni hosil qilish yoki keyingi kimyoviy reaksiyalarda ishtirok etish reaksiya faolligini kuchaytiradi.

Tadqiqotlarimizda DAONS namunalarning oksidlanish darajasini turli usullar, jumladan, yodometrik titrlash usuli va oksim usuli yordamida aniqlandi (3-jadval).

### 3-jadval

Dialdegid oksidlangan nanosellyuloza tarkibidagi aldegid guruhlarning miqdori

Namunalar	Reaksiya unumi, %	Oksidlanish darajasi, %	
		Yod soni bo'yicha	Gidroksil amin bo'yicha
ONS ( $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7+\text{NaJO}_4$ )	97,6	57	62
ONS ( $\text{KMnO}_4+\text{NaJO}_4$ )	92,9	52	58
ONS (TEMPO+ $\text{NaJO}_4$ )	89,2	48	51

IR-spektroskopiya tadqiqotlari spektrlarda  $1731\text{ cm}^{-1}$  to'rtin uzunligida DAONS ning karbonil guruhlari uchun xarakterli bo'lgan yutilish sohasi namoyon bo'ldi,  $888\text{ cm}^{-1}$  sohada yarimasetal tebranish cho'qqisining biroz siljishi ularning asosiy zanjiri strukturasiida o'zgarganligini anglatadi. Bundan tashqari,  $888\text{ cm}^{-1}$  sohada intensivlikning oshishi aldegid yoki gemiatsetal guruhlarning bilan bog'liqdir.


Termik analiz bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarida ONS va DAONS namunalarning TGA egri chiziqlarida farqlar mavjudligi aniqlandi. ONS ning massa yo'qotish harorati taxminan  $200^{\circ}\text{C}$  da boshlandi va tez vazn yo'qotish  $300^{\circ}\text{C}$  da tezlashadi. Shu bilan birga, DAONS ning parchalanish harorati oksidlanish darajasining oshishi bilan past haroratli tomonga pasaygani kuzatildi. Ma'lumki,

sellyulozaning kimyoviy modifikatsiyasi o'zgartirilmagan sellyulozaga nisbatan termik parchalanishi sezilarli darajada o'zgardi.

Dissertatsiyaning “Oksidlangan nanosellyuloza va uning hosilalarini qo'llash imkoniyatlarini tadqiq etish” nomli to'rtinchi bobida ONS va uning hosilalarining turli xil sohalarda foydalanish imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dastlab ONS ni polivinil spirti (PVS) asosida kompozit olishda qo'llash imkoniyati o'rganildi. Toza PVS bilan taqqoslanganda PVS/ONS kompozit namunalarning mexanik xossalari yaxshilanishi kuzatildi, bunda uning uzilishdagi mustahkamligi 28 MPa, uzilishdagi cho'zilishi 327%, Yung Moduli 142 MPa bo'ldi.

Olingan namunalarni qo'llanishining asosiy yo'nalishi sifatida biotibbiyot sohasi ko'rib chiqildi, chunki sellyuloza hosilalari mukoadgeziv material sifatida qo'llash potensialiga ega, bu oksidlanish jarayonida kiritilgan karboksil va aldegid guruhlari mavjudligi bilan tavsiflanadi. ONS ning kimyoviy tuzilishi uning shilliq musin qavat to'qimalari bilan vodorod bog'lanish va/yoki elektrostatik o'zaro ta'sir qilish qobiliyatini oshiradi. ONS namunalari shilliq qavat yuzasi bilan birinchi navbatda ONS ning gidroksil va karboksil guruhlari va shilliq qavat glikoproteinlarida (musinlar) mavjud bo'lgan gidroksil yoki amin guruhlari o'rtasidagi vodorod bog'lari orqali o'zaro ta'sirlashadi. ONS ning faol sirt yuzasi, biologik moyilligi va boshqarilishi mumkin bo'lgan kimyoviy xossalari uni yuqori mukoadgeziv materiallar yaratishda qo'llash imkonini beradi.




**8-rasm.** Turli hajmdagi sun'iy so'lak eritmalari bilan yuvilgan qo'y ogiz shilliq qavatiga namunalarning yopishishini ko'rsatadigan lyuminestsent tasvirlar

Sintez qilingan oksinanosellyuloza hosilalarining mukoadgeziv xossalari Reding universiteti (Buyuk Britaniya) olimlari tomonidan ishlab chiqilgan usul

asosida tekshirilgan. Bu usulga asosan tekshiriladigan material flyuorent xossaga ega bo'lgan maxsus birikma bilan (bizning tajribalarda fluorescein isosiosianat (FITC) dan foydalanilgan) belgilanadi va mukoadgeziv xossasi tekshirilayotgan materialning hayvonlar organlarida mavjud shilliq qavatidan (bizning tajribalarda yangi so'yilgan qo'yning og'iz bo'shlig'idagi shilliq qavatidan foydalanilgan) sun'iy so'lak bilan yuvilishida shilliq qavatda ushlanib qolgan miqdorinin maxsus flyuorent mikroskop yordamida tasvirga olish orqali nazorat qilinadi. Bunda FITC-dekstran namunasi kuchsiz mukoadgezivlikka ega ekanligi sababli salbiy nazorat sifatida ishlatildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, FITC-dekstran, TEMPO-usulida olingan namunalarga nisbatan ONS va DAONS namunalari yuqori mukoadgeziv xossalarni nomoyon qildi (8-rasm). Eng yuqori natijalarni DAONS ( $K_2Cr_2O_7+NaJO_4$ ) namunasi nomoyon qildi va bu uning tarkibidagi karboksil va aldegid guruhlarining mavjudligi va nisbatan yuqori miqdori bilan tushuntiriladi (2 va 3-jadval). Bu funksional guruhlar shilliq qavat yuzasida musinlar bilan turli hil bog'lar hosil qilish imkonini beradi.

Sintez qulungan ONS va uning hosilalarinining mukoadgeziv xossalarini aniqlashda kuchlanish usulidan ham foydalanildi. Bunda maxsus *Texture Analyzer* uskunasiidan foydalanildi. Bu usul qo'y og'iz bo'shlig'i shilliq qavatidan ONS va DAONS namunalarning ajralishi uchun sarf bo'ladigan kuchni aniqlashga asoslangan.




**9-rasm.** Kuchlanish usulida mukoadgeziv xossalarini o'rganish.

1-NS; 2-ONS ( $KMnO_4$ ); 3-ONS ( $KMnO_4+NaJO_4$ ); 4-( $K_2Cr_2O_7$ ); 5-( $K_2Cr_2O_7+NaJO_4$ )

Olingan natijalar ONS va DAONS namunalari NS namunasiga nisbatan ikki va undan ko'p baravar yuqori adgezivlik xossalarini nomoyon qildi, ya'ni NS namunalarni qo'yning og'iz shilliq qavatidan ajratib olish uchun 0.1N kuch talab qilingan bo'lsa, NS ning hosilalari uchun 0.20 va 0.24 N (ONS namunalari uchun) va 0.50 va 0.62 N (DAONS namunalari uchun) kuch sarflandi. By tajribalar natijalari ham mukoadgeziv xossalari bo'yicha olingan yuqoridagi natijalarni tasdiqladi, ya'ni tarkibida ham karboksil ham aldegid bo'lgan hamda ularning miqdori nisbatan ko'p bo'lgan namunalar yuqori natijalarni berdi

NS ning karboksil va aldegid tutgan yangi hosilalarining organizmlarga ta'sirini o'rganish maqsadida ularning toksikologik xossalari tadqiq qilindi, Ushbu tadqiqotlarimizda ma'lum bo'lgan standart usullardan farqli ravishda boshqacha yo'ndashuv orqali tekshiruvlar olib borildi. Bu usul ham nisbatan yangi hisoblanib Reding universiteti (Buyuk Britaniya) olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va rivojlantirilmogda. Bu usul orqali materiallarning toksikologik xossalari haqida dastlabki ma'lumotlar olish mumkin.

Shilliq qavatning yallig'lanishi testi ko'z yoki oshqozon-ichak trakti kabi shilliq qavat to'qimalarida potensial shikastlanish darajasini baholash uchun asosan farmatsevtika va kosmetik tadqiqotlarda qo'llaniladigan muqobil *in vitro* testidir. Ushbu test shilliq qavatlari sezgir bo'lgan inson shilliq qavati to'qimalari bilan taqqoslanadigan shilliq qurtlardan (odatda *Arion lusitanicus* yoki *Lehmannia valentiana* turlaridan) foydalaniladi.



**10-rasm.** ONS va uning hosilalarining toksikologik xossalarini o'rganish

Shilliq qurtlar shilliq qavatining juda sezgir yuzasiga ega bo'lib, ular harakatlanishga yordam berish va himoyalaniish uchun o'zidan shilimshiq modda ishlab chiqaradi. Chiqarilgan shilimshiq miqdori bevosita kimyoviy moddalarning toksikligiga bog'liqligini va turli moddalarning shilliq qavatini shikastlantirish xususiyati uchun miqdoriy o'lchov sifatida ishlatilishi mumkinligini ko'rsatdi. Tadqiqotlarda salbiy ta'sir qiluvchi model sifatida 1%-li benzalkoniy xlorid (BAC) eritmasi qo'llanildi, va u shilliq qurt massasini  $24 \pm 2\%$  gacha kamayishiga olib keldi. Ijobiy nazorat sifatida ishlatiladigan PBS eritmasi shilliq qurtining massasining  $6 \pm 1\%$  ga kamayishiga olib keldi. Sintez qilingan ONS va DAONS namunalari ham ijobiy nazoratda olingan natijalarga yaqin ekanligi aniqlandi. Bu dastlabki natijalar sintez qilingan ONS va DAONS namunalari kam toksiklik xossaga ega ekanligidan dalolat beradi.

## XULOSALAR

“Oksidlangan nanosellyulozaning olinishi, tuzilishi va xossalari” mavzusida falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Sellyulozaning nanoo'lchamli zarrachalarini bixromat oksidlash usuli orqali oksidlangan nanosellyuloza sintez qilindi, bunda sellulozaning piranoz halqasini saqlangan holda C6 uglerodidagi gidroksil guruhini oksidlash orqali karboksil guruhlar soni 1,36 mmol/g ga erishildi, uning tuzilishi va tarkibi fizik-kimyoviy usullar yordamida isbotlandi. Oksidlanish jarayonining davomiyligini oshirish kristallanish darajasi va termal barqarorlikni pasayishi aniqlandi. Nazariy hisob-kitoblar amalga oshirildi va oksidlanish uchun mavjud bo'lgan C6 uglerodda joylashgan gidroksil guruhlari uchun model yaratildi. AKM va DLS usullari yordamida oksidlanish jarayoni zarrachalar o'lchamining pasayishiga (20-60 nm) va zarrachalar shaklining ignasimon shakldan sferik shaklga o'zgarishiga olib kelishi, zarrachalarning polimodal taqsimotga ega ekanligi ko'rsatilgan.

2. Mikrokrystalik sellulozani permanganat oksidlash usuli orqali tarkibida karboksil guruh miqdori 1,23 mmol/g tutgan oksidlangan nanosellyuloza sintez qilindi, uning tuzilishi va tarkibi fizik-kimyoviy usullar yordamida isbotlandi. IQ spektrlarida  $1720\text{ cm}^{-1}$  to'lqin uzunligida yangi cho'qqi paydo bo'lishi, sintez jarayonida MKS kristall tuzilishi buzilishi natijasida krisyallik darajasi 79% dan 59% gacha pasayishi, zarra o'lchamlari mikrometrdan nanometrgacha (106-180 nm) kamayishi, zarra shakllari sferik va ignasimon shakllarga ega bo'lishi kuzatildi.

3. Olingan oksidlangan nanosellyuloza namunalarining 2%li suvli eritmaları turg'un gel hosil qilish qobiliyati reologik tadqiqotlar yordamida isbotlandi. Bunda amplituda va chastotali bog'liqlik bo'yicha olib borilgan reologik tadqiqotlarda saqlash moduli yo'qotish modulidan yuqori ( $G' > G''$ ) ekanligi, o'rganilgan tizimlar nonyuton suyuqliklarga xos ekanligi, ya'ni siljish tezligi oshishi bilan qovushqoqlik kamayishi kuzatildi. Olingan gel namunali asosida kriogel (gubka) va plyonka shakllarda namunalar olish imkoniyati ko'rsatildi.

4. Strukturasida ham karboksil ham aldegid guruhlar tutgan oksidlangan nanosellyulozaning yangi hosilasi tanlab oksidlash usuli – peryodat usuli yordamida dialdegid oksinanosellyuloza sintez qilindi va tuzilishi IQ-spektroskopiya, rentgenostrukturaviy va termik analizlar yordamida tadqiq qilindi. Bunda dialdegid guruhlari boyicha oksidlanish darajasi 57/62% (bixromat usulida olingan ONS uchun) va 52/62% ni (permanganat usulida olingan ONS uchun) tashkil qildi.

5. Sintez qilingan nanosellyulozaning yangi hosilalari ONS va DAONS namunalarining tarkibida mavjud karboksil va aldegid guruhlari hisobiga yuqori mukoadgeziv xossalarga ega ekanligi, real sharoitlarga yaqinlashtirilgan holda (in vitro usulida) maxsus usullar (flyurosent mikroskopiya, texture analayzer) yordamida isbotlandi. Dastlabki tadqiqotlar asosida ONS va DAONS namunalarining kam toksik xususiyatga ega ekanligi, yangi usulni (maxsus shilliq qurtlar ishtirokida) qo'llagan holda, aniqlandi va bu natijalar sintez qilingan NS hosilalarini yangi turdagi mukoadgeziv materiallar sifatida qo'llash imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
DSc.02/30.12.2019.К/ФМ/Т.36.01 ПО ПРИСУЖ  
ДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ХИМИИ И  
ФИЗИКИ ПОЛИМЕРОВ**

---

**ИНСТИТУТ ХИМИИ И ФИЗИКИ ПОЛИМЕРОВ**

**КУЗИЕВА МАХЛИЁ МУХАММАДИЕВНА**

**ПОЛУЧЕНИЕ, СТРУКТУРА И СВОЙСТВА ОКИСЛЕННОЙ  
НАНОЦЕЛЛЮЛОЗЫ**

**02.00.05 – Химия и технология целлюлозы и целлюлозно-бумажного производства  
02.00.12 – Нанохимия, нанофизика и нанотехнология**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

## Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций под номером B2024.1.PhD/K721.

Диссертация выполнена в Институте химии и физики полимеров.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (polchemphys.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

**Научный руководитель:** Атаханов Абдумутолиб Абдупатто угли  
Доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Кодирхонов Муродхон Рашидхонович  
Доктор химических наук, доцент  
Йулдошов Шерзод Абдуллаевич  
Доктор химических наук, старший научный сотрудник

**Ведущая организация:** Ташкентский химико-технологический институт

Защита диссертации состоится «\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 г. в \_\_ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 при Институте химии и физики полимеров по адресу: 100128, г. Ташкент, ул. Абдулла Кадыри, 7б. Тел. (99871) 241-85-94; факс: (99871) 241-26-61, e-mail: [polymer@academy.uz](mailto:polymer@academy.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института химии и физики полимеров за №\_\_ (Адрес: 100128, г. Ташкент, ул. Абдулла Кадыри, 7б, Тел. (99871) 241-85-94)

Автореферат диссертации разослан «\_\_» декабря «\_\_\_\_» \_\_\_\_ 2024 года  
(протокол рассылки № \_\_ от «\_\_» декабря 2024 года).

**С.Ш. Рашидова**  
Председатель Разового научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.х.н.,  
профессор, академик

**М.М. Усманова**  
Ученый секретарь Разового научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
к.х.н., старший научный сотрудник

**А.А. Саримсаков**  
Председатель Разового научного семинара

при научном совете по присуждению учёных  
степеней, д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире возрастает научный и практический интерес к биоматериалам на основе природных полимеров, обладающих биосовместимостью, биоразлагаемостью, безопасными и нетоксичными свойствами. В этом направлении одним из актуальных вопросов является получение новых наноматериалов с уникальными свойствами на основе природных полимеров, в частности, целлюлозы и ее производных, исследование их структуры и свойств, а также применение в различных областях, в том числе, и в биомедицине.

В настоящее время в мире активно ведутся научные исследования по созданию новых материалов на основе производных хитина, хитозана, пектина, целлюлозы и других природных полисахаридов, с целью их использования в медицине, в том числе в системах доставки лекарственных средств. В связи с этим, важно проводить научные исследования, направленные на модификацию целлюлозы, путем введения активных функциональных групп, таких как карбоксильных, карбоксиметильных и аминных, которые могут способствовать созданию биоразлагаемых, стимулирующих лекарственных препаратов.

В нашей республике особое внимание уделяется научным и практическим исследованиям по созданию новых полимерных материалов на основе наноразмерных и наноструктурированных природных полимеров с активными функциональными группами, используемых в сельском хозяйстве, промышленности и фармацевтике. В частности, на основе отечественных природных полимеров и их производных приняты широкие меры по организации научных исследований на высоком уровне в области разработки создания импортозамещающей и экспортоориентированной продукции в сферах медицины, сельского хозяйства, и ветеринарии, а также конкурентоспособных полимерных материалов в производстве. В Новой Стратегии развития Узбекистана по дальнейшему развитию нашей страны<sup>1</sup>, в Концепции развития науки до 2030 года<sup>2</sup> определены задачи «...переработка местного сырья, ...увеличение объемов производства новой фармацевтической продукции...». В связи с этим важно проведение научных и практических исследований, направленных на изучение возможностей создания и применения новых материалов по доставке лекарственных препаратов на основе местного сырья, пользующихся большим спросом для лечения различных заболеваний в условиях Республики Узбекистан.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит для выполнения поставленных задач в Постановлениях и Указах Президента

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28.01.2022 г. «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6097 от 29.10.2020 г. «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года».

